“YAŞ TÜRKİSTAN” JURNALINING TURKISTON TARIXIDAGI AHAMIYATI

Jo‘rayeva Nigora Avazjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20292733

Annotatsiya
Ushbu maqolda 1929-1939- yillarda Germaniyada Mustafo Cho‘qay boshchigida turkistonliklarning “Yaş Türkiston” jurnalining tashkil topishi va faoliayti haqida so‘z yuritiladi. Xususan Mustafo Cho‘qay va jurnal faoliyati bilan bog‘liq boshqa shaxslar ijodiga to‘xtalib,tahlil etiladi. Jurnalning tashkil etilishidan asosiy maqsad va uning oldiga qo‘ygan vasifalarini nechog‘lik bajara olganliklari yoritiladi.
Kalit so‘zlar : Mustafo Cho‘qay, Ahmad Zaki Validiy, Germaniya, Parij, Berlin, Turkiya, Istanbul, Yaş Türkistan, Yeni Türkistan, milliy kurash.

THE SIGNIFICANCE OF THE MAGAZINE "YOUNG TURKESTAN" IN THE HISTORY OF TURKESTAN

Abstract
This article discusses the establishment and activities of the journal “Yaş Türkistan”, founded by Turkestanis in Germany between 1929 and 1939 under the leadership of Mustafa Chokay. In particular, it focuses on and analyzes the works and activities of Mustafa Chokay and other individuals associated with the journal. The article also highlights the main purpose of the journal’s establishment and examines how successfully it fulfilled the objectives set before it.
Key words: Mustafa Chokay, Ahmad Zaki Validi, Germany, Paris, Berlin, Turkey, Istanbul, Yaş Türkistan, Yeni Türkistan, national struggle.

ЗНАЧЕНИЕ ЖУРНАЛА «МОЛОДОЙ ТУРКЕСТАН» В ИСТОРИИ ТУРКЕСТАНА

Аннотация
В данной статье рассматриваются создание и деятельность журнала «Яш Туркистан», основанного туркестанцами в Германии в 1929–1939 годах под руководством Мустафы Чокая. В частности, анализируются творчество и деятельность Мустафы Чокая и других лиц, связанных с журналом. Также освещаются основные цели создания журнала и степень выполнения поставленных перед ним задач.
Ключевые слова: Мустафа Чокай, Ахмад Заки Валиди, Германия, Париж, Берлин, Турция, Стамбул, «Яш Туркистан», «Йени Туркистан», национальная борьба.

Turkiston davosi bilan boshqa mamlakatlar va xalqlarni tanishtirib, ularning e’tiborini milliy kurash va milliy mustaqillik maqsadiga qaratmoqchi bo‘lgan turkistonlik ziyolilar, Sovet Ittifoqiga qarshi umumiy front tuzish faqat milliy matbuot orqali amalga oshirilishi mumkinligiga ishongan edilar. Ularning maqsadi, ham tashqi ko‘rinish, ham mazmun jihatidan milliy davlat tuzumini barpo etish edi.[1] Turkistondagi milliy kurashni kuchaytirish

[1]Yaş Türkistan. “Azad ve Müstakil Türkistan”. (Dekabr 1929). Yaş Türkistan, 1, 2–3.

zarurati ikkinchi bir nashr masalasini yuzaga chiqardi.[2] Ana shunday bir muhitda Turkiston milliy ozodlik harakatining yangi nashri sifatida “Yaş Türkistan” paydo bo‘la boshladi. “Yaş Türkistan” Yevropada yashayotgan turkistonlik yoshlarning ko‘magi bilan nashr etilgan. Bu yoshlar 1911, 1912 va 1922-yillarda Turkistondan Turkiya va Germaniyaga tahsil olish uchun yuborilgan shaxslardan iborat edi. 1911-yilda 15 nafar talaba, 1912-yilda 30 nafar talaba Istanbul va Berlindagi o‘quv yurtlariga yuborilgan edi.[3] 1922-yilda esa Turkiston va Buxoro Xalq Respublikasidan 58 nafar talaba Germaniyaga yuborilgan.[4] Tahsil uchun yuborilgan talabalarning boshida Alimjon Idris turardi. (1887–1959) bo‘lib, talabalar bilan Sovet elchixonasi o‘rtasidagi aloqalarni olib borardi. Bu talabalardan iqtisod fanlari doktori Naim O‘ktam va kimyo muhandisi Sabir Turkistonli Turkiyada faoliyat yuritgan bo‘lsa, tibbiyot doktori Abdulvahob Oqtay, falsafa doktori Saida Oqtay va iqtisod fanlari doktori Tahir Chag‘atoy Berlinda o‘z faoliyatlarini davom ettirgan edilar. Keyinchalik bu talabalardan ba’zilari moddiy qiyinchiliklar tufayli Turkiyaga kelib, Trabzon Muallim Maktabiga joylashtirilganlar.
“Yangi Turkiston” yopilgandan so‘ng, xorijdagi Turkiston harakatining yagona so‘zchisi “Yaş Türkistan” bo‘ldi. “Yaş Türkistan” (1929–1939) jurnali Sovetlarning Turkistonda o‘zgartirish siyosati amalga oshirila boshlangan yillarga to‘g‘ri keladi. Chor Rossiyasi qulab, uning o‘rnida Sovet Ittifoqi tashkil topishi jarayonida Turkistonda yuz bergan o‘zgarishlar va yangilanishlar jurnal sahifalarida yoritilgan. Unda Sovetlarning Turkistonni qanday qilib Sovet mamlakatiga aylantirgani, bu ish uchun qanday vositalardan foydalangani, qo‘lga kiritilgan hududlarni qanday boshqargani, Turkiston xalqi Sovet Rossiyasi hukmronligi ostida nimalarni boshdan kechirgani hamda Sovet siyosatiga qarshi turkistonliklarning olib borgan qurolli va mafkuraviy kurashlari haqida hikoya qilinadi. Markazi Berlin deb belgilangan jurnal Mustafo Chokay rahbarligida chiqarilgan.[5] Jurnalda Mustafo Chokaydan keyin eng ko‘p hissa qo‘shgan shaxslar Berlinda tahsil olayotgan o‘zbek turklaridan Tahir Chag‘atoy (1902–1984) va Abdulvahob Oqtay (Is’hoq o‘g‘li) (1904–1968) bo‘lgan. Ular jurnalning tahrir ishlarini birgalikda olib borganlar. Chokay bu davrda Parijda yashardi. Parijda Mustafo Chokaydan tashqari oz sonli turkistonliklar bo‘lgani va turkistonlik boshqa ziyolilarning aksariyati Berlinda to‘plangani sababli “Yaş Türkistan” jurnali Berlinda nashr etildi.
Moliyaviy jihatdan esa, “Yangi Turkiston” jurnalida bo‘lgani kabi, Promete Harakati fondidan foydalanilgan.

“Yaş Türkistan” — “Yosh Turkiston” degan ma’noni anglatadi. 117 sondan iborat bo‘lgan va 10 jildlik to‘plamni tashkil etgan “Yaş Türkistan” jurnali muhojirlikdagi Turkiston milliy kurashining 1929–1939-yillar oralig‘idagi barcha bosqichlarini tushunishimizga yordam beradigan xususiyatga ega. Ikki jahon urushi o‘rtasida nashr etilgani sababli, u o‘sha davrga oid xalqaro vaziyatni tahlil qilishda, ayniqsa shu davrga

[2] Yaş Türkistan, “1929-Dekabr -1934”. (Dekabr 1934). Yaş Türkistan, 61, 5–6.

[3] Zeki Velîdî. (1969). Hatıralar, Türkistan ve Diğer Müslüman Doğu Türkleri’nin Millî Mücadeleleri, İstanbul: Hikmet Gazetecilik. s. 557.

[4]Ekmel İkram, Feyzullah Hoca, Osman Yusufoğlu gibi Türkistanlı komünistler, (Özbekistan'daki hükümet üyeleri) Türkistanlı gençlerin bir kısmını Avrupa'ya okutmak için göndermişlerdi. Osman Yusufoğlu sonradan, "faşist casuslar yetişti" şeklinde yorum yapmıştı. Rusya'da faşist demek, Bolşevik karşıtlığıyla aynı anlama geliyordu. Bu konuda ayrıntılı bilgi için bk. Yaş Türkistanlı. “Bugünki Türkistan Yaşlığı [Gençliği]”, (Haziran 1931). Yaş Türkistan, 19

[5] Dergi’nin 7. yılını doldurması münasebetiyle yazılan makalede, Türk-Müslüman-Asyalı olarak, Batı'da çıkarılmak zorunda kalınmasından memnun değillerdi. Bu konuda ayrıntılı bilgi için bak.

to‘g‘ri kelgan Sovetlarning Turkistonni o‘zgartirish siyosatini baholashda muhim hissa qo‘shadigan ahamiyatga ega. “Yaş Türkistan”ning adabiy jihati juda kam bo‘lib, uni siyosiy jurnal deb aytish mumkin. Taxminan 5000 sahifadan iborat bo‘lgan bu to‘plam 10 yil davomida uzluksiz nashr etilgan. Ba’zi sonlari ikki raqam ko‘rinishida chiqarilgan. O‘rtacha 42 sahifadan iborat bo‘lgan deyarli har bir sonning tashqi muqovasida obuna shartlari joylashtirilgan. Jurnalning tashqi muqovasida fransuz tilida (Jach Turkistan) jurnal nomi va barcha turdagi jo‘natmalar uchun Mustafo Chokayning manzili ko‘rsatilgan. “Yaş Türkistan” nechta nusxada chop etilgani haqida aniq ma’lumot mavjud emas. Ko‘plab sonlarning moliyaviy yetishmovchilik sababli cheklangan miqdorda bosilgani haqidagi xabarlarga duch kelinadi. Jurnalga kelgan murojaatlarga qaraganda, tirajni oshirish va hajmini kengaytirish zarur edi, biroq mavjud moddiy holat bunga imkon bermagan. Jurnalda 1761 ta maqola mavjud. Bu maqolalarning katta qismi G‘arbiy Turkiston bilan bog‘liq maqola va boshqa yozuvlardan (e’lon, tuzatish, xabar, eslatma, kitob taqdimoti, maktub, iltimos, tabrik va hokazo) iborat. Qolgan qismi esa Sharqiy Turkiston, Kavkaz, Idil-Ural va Qrim bilan bog‘liq mavzularni o‘z ichiga oladi.
Mazmun jihatidan jurnal siyosiy, adabiy va yangiliklar bo‘limlaridan tashkil topgan. Siyosiy bo‘limda Turkistonda (Kavkaz, Idil-Ural va Qrimni ham qo‘shgan holda) Sovetlar tomonidan amalga oshirilgan paxta, ta’lim, muhojirlik, mahalliylashtirish, iqtisodiyot va din siyosatlari, muhojirlarning hayoti, milliy kurashning ahamiyati, uning zaruriyati va usullari masalalariga asosiy e’tibor qaratilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Mustafa Cho‘qay rahbarligida chop etilgan “Yaş Türkistan” jurnali Sovet davridagi Turkiston milliy kurashi tarixining eng muhim va ishonchli manbalaridan biri ekani aniqlandi. Ushbu jurnal Sovetlarning Turkistonda amalga oshirgan o‘zgarish (dönüşüm) siyosatini yoritgan eng muhim manba bo‘lib, voqealarni boshqacha, ya’ni muhojirlik nuqtai nazaridan aks ettirgan. Muhojir turkistonliklar tomonidan chiqarilgan boshqa nashrlardan farqli ravishda, “Yaş Türkistan” Stalin davrida Turkistonda amalga oshirilgan ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarish jarayonlarini har tomonlama yoritgan eng batafsil nashr hisoblanadi. Undagi ma’lumotlar o‘sha davr siyosatini boshqa nuqtai nazardan baholashga yordam beradi hamda Turkiston va turkistonliklarning o‘sha paytdagi muhitini tushunishga ko‘maklashadi. Chunki Sovet hukumati siyosati ichki muhitda ma’lum mafkura doirasida taqdim etilgan bo‘lsa, bu jurnal muqobil qarashni ifodalagan. Bu nashr orqali muhojir turkistonliklarning milliy kurashga qo‘shgan hissasini baholash imkoniyati paydo bo‘ldi. Bugungi kunda ham “Yaş Türkistan” Markaziy Osiyo respublikalarining milliy kurash tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. U vatandan tashqarida yashashga majbur bo‘lgan ziyolilarning fikriy va siyosiy faoliyatini tushunishni osonlashtirdi. Shu bilan birga, jurnal maqolalari ilmiy jihatdan bahsga ochiq bo‘lishi mumkin. Chunki mualliflarning aksariyati sovet rejimi tomonidan quvg‘in qilingan yoki millatchi qarashdagi kishilar bo‘lgan. Shu sababli maqolalar ma’lum mafkura va muhit ta’sirida yozilganini hisobga olish kerak.
“Yaş Türkistan” muhojirlar uchun birlashtiruvchi vazifani bajardi. Ayniqsa, Turkistonni ko‘rmagan yosh avlodning milliy tuyg‘ularini saqlash va ularni mustaqil Turkiston g‘oyasi ruhida tarbiyalashda muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, boshqa xalqlarni Turkiston masalasi bilan tanishtirib, jahon jamoatchiligining e’tiborini jalb qilishga harakat qildi va ma’lum darajada muvaffaqiyatga erishdi. Bu jurnal nafaqat turkistonliklar, balki boshqa turk xalqlari orasida ham o‘quvchilar topib, ma’naviy tayanchni kuchaytirdi. U uzoq vaqt davomida Yevropadagi turkistonliklarning ovozi bo‘lib xizmat qildi va deyarli bir tashkilot vazifasini bajardi. Turli hududlardagi turkistonliklarni birlashtirib, ular o‘rtasidagi aloqani saqlashga yordam berdi. Shuningdek, jurnal “Turkiston” atamasining unutilmasligiga hissa qo‘shdi va

bu tushuncha ilmiy asarlarda saqlanib qolishiga ta’sir ko‘rsatdi. Sovetlarning Turkistonda amalga oshirgan “o‘zgarish” siyosati 1991-yilda respublikalar mustaqillikka erishgach, o‘z maqsadiga to‘liq yetmaganligi ayon bo‘ldi. Ammo Sovetlar milliy tarixni uzib qo‘yish va xalqlar o‘rtasidagi birlikni zaiflashtirish maqsadida qisman muvaffaqiyatga erishgan deyish mumkin. Umuman olganda, “Yaş Türkistan” milliy o‘zlikni saqlash uchun kurashgan bir xalqning holatini aks ettiruvchi muhim manbadir. U nafaqat tarixchilar, balki san’at, adabiyot va xalqaro munosabatlar sohasidagi tadqiqotchilar uchun ham qimmatli va original ma’lumotlar beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Abdulvahap Kara, Türkistan Ateşi; Mustafa Çokay’ın Hayatı ve Mücadelesi. – Istanbul: 2002. – S. 120.
2. A.M. Mahmudov. Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayevning ijtimoiy-siyosiy faoliyati. – Farg‘ona: 2022. – B. 29.
3. Andican Ahat. Cedidizm’den Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi. Istanbul: 2003. – S. 270.
4. Boymirza Hayid. Komunistik Imperializm qarshisida Turkiston. – Istanbul: 1962. – B. 118.
5. B.Salif. O‘zbekiston va Tojikiston. – Toshkent: 1925. – B. 46.
6. Tülay Duran, Ayaz Tahir. Türkistanın Bağımsızlığına Hizmet Eden “Yeni Türkistan” dan seçilmiş makaleler. – Istanbul: Türkistan Idil-Ural Vakfı, 2014. – S.14.